XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2024 - yil 20 - yanvar VI-67-5-4-58-K/24 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanidagi geografik obyektlarni qayta nomlash to‘g‘risida

Qamashi tumanidagi takror nomlangan ko‘chalarga nom berish to‘g‘risidagi hokimligiga kiritgan iltimosnoma xati, Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2023-yil 3-oktabrdagi 3-son yig‘ilish bayoniga ko‘ra hududdagi geografik obektlarni (ko‘cha) nomlash haqidagi taklifi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 15-noyabrdagi 05-18-1226-son ekspert xulosasi va O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 15-noyabrdagi 05-18-1226-son ekspert xulosasiga asosan Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan 2 ta geografik obyektlarni (ko‘cha) qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Qamashi tumanida qayta nomlanayotgan geografik obyektlarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qamashi tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Bekmurzayev)ga bir hafta muddatda tuman hududidagi nomlari o‘zgargan geografik obyektlarning nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklansin.

4. Tumandagi tegishli mahalla fuqarolari yig‘inlari raislariga aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan 2 ta geografik obyektlarni (ko‘cha) qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi munosabati bilan aholi o‘rtasida keng tashviqot-targ‘ibot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Raximov) qayta nomlangan hududlarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb saytida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (Haydarov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Omonova) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **X.Usmonov**

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2024-yil 20-yanvardagi
VI-67-5-4-58-K/24-son qaroriga
1-ilova

Qamashi tumanida qayta nomlanayotgan geografik obyektlarning ro‘yxati

T/r	Geografik obektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Ko‘cha	Oynako‘l MFY	Sunbula	Cho‘lobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Ko‘cha	Uzun MFY	Gulchaman	Kengguzar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq